

**“JAMOATCHILIK FIKRINI O‘RGANISH VA SHAKLLANTIRISHNING
DOLZARB MUAMMOLARI: NAZARIYA, USLUBLAR, AMALIYOT”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY - AMALIY SEMINAR**

2021-yil 4-noyabr kuni “Jamoatchilik fikrini o‘rganish va shakllantirishning dolzarb muammolari: nazariya, uslublar, amaliyot” mavzusidagi doimiy ilmiy-amaliy seminarning dunyoga taniqli olimi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Ra‘no Ahatovna Ubaydullayevaning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilish mavzusi “O‘zbekistonda sotsiologiya fanining shakllanishi – akademik Ra‘no Ubaydullayevaning hissasi” deb nomlandi.

Akademik Ra‘no Ahatovna Ubaydullayeva O‘zbekiston xotin-qizlari orasida birinchi iqtisodiyot fanlari doktori, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo respublikalari mehnat resurslaridan foydalanish, demografiya va aholi bandligi masalalari bo‘yicha mintaqaviy kompleks muammolar tadqiqotlari tashkilotchilaridan biri edi.

Ra‘no Ahatovna O‘zbekistonda jamoatchilik fikri sotsiologiyasini o‘rganish, shakllantirish va rivojlantirishning ilk bosqichida - 1998-yilda “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish Markaziga rahbar etib saylandi. Bugun jamoatchilik fikri sotsiologiyasining o‘zbek maktabi keng jamoatchilik tomonidan nafaqat O‘zbekistonda, balki MDH mamlakatlari va xorijda ham tan olingan, uzoq 1998-yilda esa bularning hammasini boshidan boshlash kerak bo‘ldi. Bu ham tadqiqotlar metodikasi va metodologiyasini ishlab chiqish, ham jahon tajribasini o‘rganish, ham milliy xususiyatlarni, aynan o‘zbekistonliklarga xos mentalitet va boshqa ko‘plab jihatlarni inobatga olish, degani edi. O‘zining 24 yildan ortiqroq faoliyati davomida Markaz sotsiologiya fanining turli usullari orqali 650dan ziyod kompleks tadqiqotlar o‘tkazdi.

Ra‘no Ahatovna O‘zbekiston sotsiologlarining bir necha avlodi ta‘lim olgan va zamonamiz sotsiologlari foydalanayotgan qator kitoblar muallifi. Olima tomonidan jamoatchilik fikri sotsiologiyasi sohasida mamlakatda va xorijda ko‘plab monografiya, metodika va ilmiy asarlar e‘lon qilingan. Ularning eng muhimlari “O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini o‘rganish va shakllantirishning dolzarb muammolari”, “O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini o‘rganish metodologiyasi”, “Jamoatchilik fikrining sotsiologik so‘rovlari tanlovi metodikasi”, “O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini o‘rganish metodologiyasini takomillashtirish muammolari”, “Jamoatchilik fikri: jamiyat va davlat o‘rtasidagi muloqot”, “O‘zbekistonliklarning zamonaviy o‘ziga xosligi” va boshqalardir. Olimaning “Kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari kontekstida aholining ijtimoiy tuzilmasi tahlili” (2020) fundamental asari esa O‘zbekistonda sotsiologiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi.

Ra‘no Ahatovna mamlakatimiz taraqqiyotiga, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shish sharafiga muyassar bo‘lganidan juda faxrlanardi, u to umrining oxirigacha o‘z ideallari va ona-yurtiga sidqidildan sadoqat bilan xizmat qilish, o‘z sohasidagi bilimlarni tinimsiz takomillashtirib borish, oilasi, odamlar va umuman hayotni sevishdek hayotiy maslaklariga sodiq qoldi.

Ra'no Ahatovna hamisha "Erishilgan marrada to'xtab qolmasdan, doimo olg'a intilish, ona yurtingga vijdonan va halol xizmat qilish hamda ko'tarinki ruhda mehnat qilish kerak!" deb ta'kidladi.

Ilmiy-amaliy seminar ishida O'zbekiston va yaqin hamda uzoq xorij mamlakatlaridan yetakchi davlat arboblari, siyosatchilar, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, tarix, huquqshunoslik sohasi olimlari ishtirok etdilar.

Seminar doirasida ishtirokchilar e'tiboriga "Akademik Ra'no Ubaydullayevaning ilmiy va intellektual merosi" mavzusidagi ma'ruza taqdim etildi. Tadbir davomida akademik Ra'no Ahatovna Ubaydullayevaning ilmiy va professional faoliyatiga bag'ishlangan kitob va videorolik taqdimoti o'tkazildi.

O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish va shakllantirishga hamda sotsiologiya taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasini inobatga olib, tadbirda o'zbek sotsiologiya maktabining asoschilaridan biri - akademik Ra'no Ahatovna Ubaydullayevaning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 4-noyabr kunini akademik R.A.Ubaydullayeva nomidagi yillik sotsiologik o'qishlar kuni deb e'lon qilish haqida qaror qabul qilindi. Ilmiy o'qishlarning bunday shakli o'zining uzoq va samarali hayoti davomida jamoatchilik fikrini o'rganish jarayonida akademik Ra'no Ahatovna Ubaydullayeva boshlagan ishni davom ettirish, olima shakllantirgan fikrlar, g'oyalar, takliflarni amalga oshirish imkonini beradi.